

# **HOKIM VA YOSOLAR UCHRASHUVI**



## **HOKIM VA YOSOLAR UCHRASHUVI**

Bugun, "Amudaryo" bolalar sog'lomlashtirish oromgohida 30 iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan "Hokim va yoshlar uchrashuvi" tashkil etildi.

Unda shahar hokimi yil boshidan buyon turli tanlov va musobaqalarda yaxshi natijalarini qo'lga kiritib kelayotgan mahallalardagi yoshlar yetakchilari, iqtidorli va istedodli yoshlar hamda "Besh tashabbus olimpiadasi"ning respublika bosqichida sportning "Street workout" turi bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritgan yoshlar va ularning ota-onalari bilan uchrashdi. Uchrashuvda hokim yoshlarni 30-iyun yoshlar kuni bilan qizg'in tabriklab, ular bilan dildan suhbatlashdi.

Jarayon davomida kuni kecha o'tkazilgan "Fidoyi yoshlar yetakchisi" Respublika ko'rik-tanloving Termiz shahar bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritgan yoshlar yetakchilariga printer va turli tanlov va musobaqalarda g'oliblikni qo'lga kiritgan sportchi yoshlarga esa zamonaviy kompyuter jamlanmalari shahar hokimi tomonidan topshirildi.

Shuningdek, uchrashuvda bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida Qonun loyihasi muhokamasi borasida ma'lumotlar berildi.







